

“O‘zbekiston-Qozog‘iston: Buyuk Yevrosiyo doirasidagi do‘stlik, sheriklik va ittifoqchilikning 30 yilligi” mavzusida xalqaro davra suhbatlari o‘tkazildi

Bugun, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi markazi va Qozog‘iston Respublikasi “Yevrosiyo monitoringi” tahliliy tadqiqotlar markazi hamkorligida ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.



Unda azaldan do‘st, qardosh bo‘lgan ikki mamlakat o‘rtasidagi tarix uchun qisqa, insoniyat uchun esa ulkan vaqt - 30 yil davomida O‘zbekiston va Qozog‘istonning shonli do‘stlik yo‘li xususida qizg‘in fikrlar bildirildi. Davra suhbatida ishtirok etgan olimlar hozirgi global barqarorlik kuchaygan sharoitda Qozog‘iston va O‘zbekiston mintaqaviy o‘zaro munosabatlar tizimidagi o‘rni haqida alohida to‘xtalib, ilmfandagi do‘stlik va hamkorlik bilan har qanday muammolarni bartaraf etish, ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy rivojlanishlarni amalga oshirish mumkinligini e‘tirof etishdi.

Bir so‘z bilan aytganda ushbu xalqaro davra suhbatlari O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik tajribasini dinamikada baholash (munosabtlarni har jihatdan tahlil etish), ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish istiqbollariga qaratildi.